

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

№ 1, 2017

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro, 2017

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

№ 1, 2017

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 4 marta chiqadi.

Jurnal O`zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O`zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o`rinbosari: Navro`z-zoda Baxtiyor Negmatovich – iqtisod fanlari doktori, professor

Mas`ul kotib: Hamroyev Alijon Ro`ziqulovich – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

To`laganov Abduqobil Abdunabiyevich, texnika fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Choriyev Abdushukur Choriyevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor

Jabborov Azim Meyliqulovich, psixologiya fanlari doktori, professor

Sunnatova Ra`no Izzatovna, psixologiya fanlari doktori, professor

Tadjixodjayev Zokirxo`ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O`rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Ne`matovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To`rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisod fanlari doktori, professor

Bo`riyev Sulaymon Bo`riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

MUNDARIJA-SODERJANIE-CONTENTS

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	
S.Qahhorov, H.Jo`rayev. Mediata`limning rivojlanish bosqichlari	8
A.Xodjayev, A.Xoshimov, S.Yusupxodjayev. Oliy ta`limda o`quv jarayonini optimal tuzishning konseptual asoslari	14
M. Mirsoliyeva. Pedagog kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlari	18
G. Boymurodova. Qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonini tashkil etish hamda boshqarishda axborot texnologiyalarining o`rni	23
A.Sultonov. Ta`lim jarayonining sifati – o`qitish tizimini takomillashtirish sifatida	27
Sh. Abdullayeva. O`qituvchining emotsional barqarorligini psixologik qo`llab-quvvatlash	32
O. Usanova. OTM o`qituvchisining pedagogik faoliyatida nutqiy va kasbiy kommunikatsiyasi	36
N. Toshva. O`quvchilar bilish faoliyatlarini rivojlantirish jarayonining mazmuni	42
I. Moskalev.Ta`limda subyekt-faoliyatli yondashuvni qo`llash Ukraina mudofaa kuchlari operativ-taktik ofitserining amaliy tafakkurini rivojlantirishning metodologik sharti sifatida	47
O.Ribchuk. Oliy ta`limdan keyingi ta`lim tizimida o`qituvchilarning maxsus kompetentligini rivojlantirish muammolarini pedagogik tadqiq etish metodikasi	53
Y. Pridokko. Harbiy ta`lim sohasini monitoring qilish	59
V.Yagupov, I.Kozubov. "Ad'yunktlar metodologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi" ilmiy maktabida ad'yunktlar metodologik madaniyati motivatsion-qadriyatli komponentini rivojlantirish natijalari	63
N.Xalilova. Refleksivlik umumiy qobiliyatlar tizimi sifatida	70
O`. Shamsiyev. Bolalikdan maktab sari	75
G. Yunusova. O`smirlar o`rtasida huquqbuzarlikning oldini olishda ta`lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligi	78
R.Mullaxmetov, M.Innazarov. Ta`lim sifati menejmenti tizimining samaradorligini oshirishda tashxis texnologiyalarining ahamiyati	81
T.Bondarenko. Muhandis-pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni monitoring qilish tizimi o`quv muassasasi informatsion ta`lim muhiti komponenti sifatida	85
A.Bekirova. Bo`lg`usi boshlang`ich sinf o`qituvchisi o`quv subyektiligi metodologik muammo sifatida	91
L.Danilova. Talaba-yoshlarda mehr-shafqat tuyg`usini shakllantirishning ijtimoiy shartlanganligi	99
U. O`rinov. Ijtimoiy hamkorlikning tarixi, rivojlanishi va uning pedagogik-psixologik jabhalari	104
N. Jumayeva. Yoshlar tarbiyasida ommaviy axborot vositalarining o`rni	110
A. Alimov. Bo`lajak kasb ta`limi pedagoglarini o`qitishda shaxsga yo`naltirilgan innovatsion texnologiyalarni qo`llash	113
Sh. Farmonova. O`quv-biluv faoliyati va biluv topshiriqlarining tiplari	119
Sh. Quliyeva. Oliy ta`lim muassasasida ta`lim sifatini boshqarish	123
D.Ilxamova. Bolalarda agressivlik shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	128
J.Amonov. Rahbar faoliyatida boshqaruv tizimining psixologik tuzilmasi	131
O.Avezov. "Psixologiyada motivatsiya tushunchasi va uning asosiy muammolari" mavzusining nazariy tahlili	135
Z.Qorayev. A.Navoiy asarlarida o`zbek xarakterining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari talqini	141
S.Safoyeva. Talabalarni o`quv faoliyatida faollashtirishda oyin texnologiyalaridan foydalanishning o`rni va ahamiyati	145
G`. Sayfullayev, L.Alimova. Ekskursiyalar va ularning boshlang`ich sinf o`quvchilarining tabiatshunoslikni o`rganishdagi o`rni va ahamiyati	148
IJTIMOY-GUMANITAR TA'LIM	
Sh.Hayitov, B.Rizayev. Amir Abdulahadxonning Rossiya imperiyasida qurdirgan inshootlari	152
A.Sharipov. Ta`lim tizimidagi islohotlar: falsafiy fanlardan darslarni yangi sifat bosqichiga ko`tarish	156
G.Qo`chqorova. Fuqarolik ongi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o`rni	163
M.Janobilova. Umuminsoniy qadriyatlar va demokratik prinsiplar uchun kurash	167
J.Jo`rayev. Mamlakat oliy ta`lim muassasalarida sotsiologiya fani o`qitilishining dolzarb masalalari	171
ANIQ VA TABIIY FANLAR	
T.Rasulov. Musbat aniqlangan matritsalar uchun ba`zi tengsizliklar	175
G.Xudoynazarova. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 7-sinfida kimyodan tajribaviy masalalarni yechish metodikasi	184
M.Ergashev, Sh. Xudoyberdiyev. Organik kimyodan amaliy mashg`ulotlarni o`tishda "Piramida" texnologiyasini qo`llash	190
E. Atoyev. Kimyo fanlarini o`qitishda virtual kimyoviy eksperimentlarni joriy etish	194
M.Badiyev, A.Shukurov, D.Mamurova. Chizmachilik xonasini jihozlashning o`quvchilarga psixologik va pedagogik ta`siri	198
TIL VA ADABIYOT, XORIJIY TILLAR	
R. Zaripova. Frazologik iboralar va ularning semantik-grammatik tuzilishi	203
N. Bekova. Navoiyning ulug` muddaosi	209
O.Adizova. Aziz Qayumov ilmiy maktabining tahlili va tadqiqot yo`nalishi	213
G.Hojiyeva. Chet tili amaliy mashg`ulotlarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	218
N.Qayumova.Til muloqot vositasi sifatida	229
I. Davronov. Algoritmik mashq va uning xususiyatlari	233
IQTISODIY TA'LIM	
B.Navro`z-zoda. Master-klass texnologiyasida fermerlarga biznes-reja tuzishni o`rgatish	237
TAHRIRIYAT MEHMONI	
M.Mahmudov, S.Avezov. Kitob-oftob	244
TAQRIZ	
Sh. Hayitov. O`zbekiston-Turkmaniston: o`zaro hamkorlik va qardoshlik aloqalari chorrahasida	246
E'LONLAR	

TIL VA ADABIYOT, XORIJIY TILLAR



Rano ZARIPOVA

Buxoro davlat universiteti
ingliz tili va adabiyoti kafedrası
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

FRAZEOLGIK IBORALAR VA ULARNING SEMANTIK-GRAMMATIK TUZILISHI

Maqolada frazeologik iboralar va ularning semantik-grammatik tuzilishi xususida fikr yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: frazeologik ma'no, frazeologik ibora, frazeologizm, frazeologik birlik.

В статье размышляется о семантико-грамматическом строении фразеологических выражений.

Опорные понятия: фразеологический смысл, фразеологическое выражение, фразеологизм, фразеологическое единство.

In article is told about the semantically grammatical structure of phraseological expressions.

Supporting concepts: the phraseological sense, the phraseological expressions, the phraseology, the phraseological unit.

Frazeologik ma'no qo'shimcha attenkalardan iborat bo'ladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Masalan:

Endi to'rtinchi rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak, oshiq olchi bo'lardi.

Bu yerda ekanizni eshitib, hech narsa ko'zimga ko'rinmadi, uchib bora qolsam dedim.(O)

Birinchi misoldagi frazeologizm belgi, ikkinchi misoldagisi esa harakatni bildiradi. Frazeologizmlar, so'zlar kabi, yaxlit bir ma'no ifodalasa-da, lekin frazeologik ma'no jihatdan leksik ma'nodan farq qiladi. Shu sababli, frazeologizmlar so'zlarga sinonim bo'lgan hollarda ham frazeologik ma'no birbiriga teng bo'lmaydi.

Frazeologik ma'noning hajmi leksik ma'noning hajmiga nisbatan keng, murakkab bo'ladi. Ko'pgina frazeologizmlar ma'nosida so'zning ma'nosi bo'lmagan komponent hisoblanadi.

Masalan: **a hard nut to crack – a very difficult problem.**

(Boshida yo'ng'oq chaqmoq – o'ta darajada azoblanmoq).

Ko'rinib turibdiki, bu frazeologizmlar ma'nosida yaxlit ma'no bor, frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar ma'no mustaqilligiga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ayrim frazeologizmlarning komponentlari o'zgarsa ham frazeologik ma'no saqlanadi:

Masalan: **to stand to one's guns-to stick one's guns;** bir pul-ikki pul-uch pul.

Keltirgan dalillar, frazeologizmlar garchi so'zlar kabi yaxlit ma'no ifodalasa-da, lekin frazeologik ma'no bilan leksik ma'no tabiati bir xil emasligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar semantik jihatdan so'zlardan farqli belgi xususiyatlarga ega bo'lgani uchun ham, tilda paydo bo'lgan va yashab kelmoqda.

O'zaro bog'langan bu so'zlar mohiyatiga ko'ra birikmaga yoki gapga teng bo'ladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma'no uni sintaktik birlik deb emas, balki semantik birlik deb qarashga olib keladi. Shu sababli, birikmaga yoki gapga tenglik haqida gapirganda iboraning ichki sintaktik qurilishi ko'zda tutiladi; ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo'ladi.

Umuman, ibora tarkibida qatnashgan so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish o'z kuchini saqlaydi, faqat ichki bo'ladi.

Masalan: "ko'ngli og'ridi" iborasi ichki sintaktik qurilishi jihatdan gapga teng, ayni shu iboraning ko'nglini og'ritmoq varianti esa birikmaga teng. Bunday sintaktik qayta qurilish esa fe'l iboraga nisbat yasalishi munosabati bilan yuz beradi; o'timsiz fe'l bosh kelishikdagi ot bilan munosobatga kirishgan

bo'lsa, orttirma nisbat yasovchisini olib, o'timliga aylangach, ot komponentning bosh kelishigi tushum kelishigiga almashadi. Ko'rinadiki, bir komponentdagi grammatik o'zgarish ikkinchi komponentga ham shunga muqobil o'zgarishni talab qiladi, natijada gapga teng holat birikmaga teng holatga o'tadi. Bunday ikki xil sintaktik qurilish shaklida bo'la oluvchi iboralar anchagina: “*ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'ldi*” - “*ko'zni ko'r qulog'ini kar qilmoq*”; “*ko'zini moshdek ochmoq-ko'zi moshdek ochildi*” kabi. Orttirma nisbat yasalishi doim sintaktik qurilishni o'zgartirib yubormaydi.

Masalan: “ko'z oldiga kelmoq”, “ko'z oldiga keltirmoq” iborasida nisbat yasalishi sintaktik qurilishni-birikmaga teng holatni o'zgartirmaydi, bu yasaliş tufayli ikkinchi variant o'timlilik kashf etadi. Bunday grammatik o'zgarishlar iboraning faqat ifoda planida ro'y berib, uning mazmun planiga ta'sir qilmaydi. Gapga tenglikdan birikmaga tenglikka va, aksincha, aylanish iboralarning ma'lum bir qismigagina xos bo'lib qolgan iboralar doimo bir sintaktik qurilish shaklida namoyon bo'ladi.

Masalan: “ko'ziga cho'p solmoq”, “ko'zini bo'yamoq”, “ko'z o'ngida” kabi iboralar doim birikmaga teng qurilishli shaklda: “ko'zi yetdi”, “ko'zi ilindi”, “ko'zi ko'r – qulog'i kar” kabi iboralar doim gapga teng qurilishi shaklda ishlatiladi. Misollardan ko'rinadiki, ichki sintaktik qurilishi birikmaga teng iboralar ham, gapga teng iboralar ham yig'iq va yoyiq bo'ladi, odatdagi sintaktik bog'lanishlarda qanday bo'laklar qatnasha, iboralar tarkibida ham xuddi shunday bo'laklar qatnashadi.

Iboralarning paradigmatic shakllari (turlanish, tuslanish kabilar) dastavval ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi. Iboralarning asosiy qismini fe'l frazeologik birliklar tashkil qiladi. Fe'l iboralarning ichki sintaktik qurilishi birikmaga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslanadi: “bosh egdim”, “bosh egdin” kabi. Agar iboraning ichki sintaktik qurilishi gapga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslana olmaydi, doim 3-shaxs shaklida turadi. Bu ikki tur fe'l iboralar tuslanishi jihatdan farq qiladi, ammo mayl, zamon kabi kategoriyalarning formalarida o'zgarish har ikkisida voqe' bo'laveradi: *bosh egdin, ko'z tegsa, bosh egibdi, ko'z tegibdi* kabi. Bunday iboralarning ko'pi bo'lishli va bo'lishsiz aspektida ham kelaveradi: *bosh egaylik va bosh egmaylik* kabi. Fe'l frazeologik birliklarning leksik tarkibida, fe'l so'z komponentidan tashqari, boshqa turkum so'zi ham qatnashadi. Bunday so'z komponent ko'pincha ot bilan ifodalanib, uning tarkibida egalik affiksi vositasida fe'l ibora uch shaxsdan biriga nisbat beriladi: *ko'nglim yorishdi, ko'ngling yorishdi, ko'ngli yorishdi* kabi. Gapga teng qurilishli iboralarda shaxs-son ma'nosi tuslovchi bilan emas, balki egalik affiksi bilan ifodalanadi. Birikmaga teng qurilishli fe'l iboralarda esa shaxs-son ma'nosini tuslovchi ham, egalik affiksi ham ifodalaydi. Bunda ikki holat mavjud:

1. Tuslovchi bilan egalik affiksi shaxs-sonda muvofiqlashib boradi: *ko'nglimni uzdim, ko'nglingni uz* kabi. Bunda ayni shaxs-son ifodasi ikki marta ifodalanadi.

2. Tuslovchi bilan egalik affiksi boshqa-boshqa shaxs-son ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi, shunga ko'ra har biri mustaqil o'zgaradi: *ko'nglini topdim, ko'nglingni topsin* kabi.

Ayrim iboralarga bu ikki holat birgalikda xos bo'ladi: *ko'nglingni buzdim, ko'nglimni buzdim* kabi. Ot-komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksini o'zgartirib ishlatish sifat, ravish iboralarda ham mavjud: *ko'ngling bo'sh, oyog'ingni qo'lingga olib, oyog'ini qo'lga olib* kabi. Ba'zi iboralar sintaktik qurilishiga ko'ra birikmaga teng bo'la turib, doim 3-shaxsda ishlatiladi. Masalan: boshidan oshib yotmoq iborasi faqat 3-shaxsda keladi, chunki tuslanishida narsa bilan bog'lanadi. Ba'zi iboralar grammatik qurilishida doim 3-shaxs egalik affiksi qatnashadi, chunki egalik olib nisbatlanishida bunday ibora narsa bilan bog'lanadi: *mag'zini chaqmoq, misi chiqdi* kabi. Bunday hodisa fe'l bo'lmagan frazeologik birliklarda ham mavjud: boshini yeb, ko'nglingning kiri yo'q, ichi qora kabi. Ayrim iboralarda ot so'z komponentga egalik affikslarining faqat ko'plik shakllari qo'shiladi: gapimiz bir joydan chiqdi, gapingiz bir joydan chiqdi kabi. Faqat ko'plik tuslovchisini olib keladigan iboralar ham uchraydi: gapni bir joyga qo'ydik (qo'yishdi yoki qo'yidilar) kabi. Ot-so'z komponentga tugaydigan ayrim iboralar kelishikda o'zgaradi, son shaklini o'zgartiradi: ammanning buzog'i, ammanning buzoqlaridan, ammanning buzog'ini; toshbag'ir, toshbag'irlar, toshbag'irlarga. Misollardan ayonki, tuslanish egalik affiksi olib o'zgarishi odatda kishi bilan bog'lanishda sodir bo'ladi, narsa bilan bog'lanishda esa doim 3-shaxs tuslovchisi yoki egalik affiksi keladi. Iboralarning sintaktik qurshovi. Sintaktik qurshov deganda iboralarning nutqda turli bo'laklar bilan bog'lanishi nazarda tutiladi. Iboraning biror sintaktik qurshovga ega bo'lishi uning turkumiga, ichki sintaktik qurilishiga, fe'l iboralarda fe'l so'z komponentning boshqaruviga va bu boshqaruvning ibora tarkibida reallashgan yoki reallashmaganligiga, ot-

komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksiga bog`liq. Masalan: agar ibora gapga teng qurilishli bo`lsa, nutqdan ega olmaydi (chunki bunday bo`lak iboraning o`z ichida qatnashadi) ko`zi tindi, ichi qora kabi.

Fe`l iboralarda fe`l so`z-komponent o`timli yoki o`timsiz bo`ladi. Agar o`timsiz bo`lsa, bosh kelishidagi so`z komponent bilan ega kesim munosabatiga kirishadi; fe`l so`z komponentining bunday sintaktik imkoniyati iboraning o`z tarkibida reallashishi sababli kontekstda shunday bo`lak bilan bog`lanmaydi. Kesimi sifat bilan ifodalangan iboralarda ham shunday. Bu tip iboralarda sintaktik qurshov ko`pincha ot komponentdagi egalik affiksi orqali vujudga keladi: mening ko`zim tindi, uning ko`zi tindi, Ehsanning ko`zi tindi kabi. Bunday bo`lak vazifasida I – II shaxlarda kishilik olmoshigina keladi va u nutqda ko`pincha reallashmaydi.

Yirik frazeolog olim A.V. Kuninning fikricha, frazeologizmlar nominativ, stilistik, kumulyativ, pragmatik va xulosalovchi, yakunlovchi vazifalarni bajaradi.

Frazeologizmlarning nominativ funksiyasi. Professor Sh. Raxmatullayev iboralarni ma`no turlari jihatidan a) nomlovchi iboralar va b) ifodalovchi iboralarga ajratib tasnif qiladi. Shulardan nomlovchi iboralar deyilganda olim predmetga xos belgining nomi (do`ppining tagidek), harakat holatning nomi (og`iz ko`pirtirmoq), harakatga xos bo`lgan belgining nomi (eshikdan kelmay teshikdan)ni bildiruvchi iboralarni tushunadi. Bunday tasnif esa iboralarning ma`lum qismi matnlarda nominativ funktsiya bajarishi mumkinligidan dalolat beradi. Masalan: belini bog`lamoq iborasi oddiy harakat “shaylanmoq, otlanmoq” ma`nosini ifodalashga xizmat qiladi; biz chunon xizmatga belni bog`ladik, bormi himmat o`lchagich tarozilar: Belni bog`lang u jahonni to`ldiring qog`oz bilan. “Yelka qismoq” iborasi adabiy tilda polisemantik xususiyatga ega. Uning dastlabki ma`nosi “sovuqdan yoki ruhiy azobdan yengilmoq” bo`lsa keyingisi inkor yoki taajjub alomati “yo`q bilmayman” kabi ma`nolarni ifodalovchi harakat bo`lib, uning ikkala ma`nosi ham nominativ funktsiya bajarishga bo`ysundirilgan.

Shunday qilib, badiiy matnda iboralarning ma`lum qismi denotativ asosga ega bo`lib, u yoki bu predmet, voqea-hodisani, xatti-harakatni nomlaydi, so`z atama funksiyasini bajaradi.

Nutqni ixchamlashtirish funksiyasi. Iboralarning ayrimlari ma`noni ixchamlashtirish (lakonizatsiyalash) xususiyati bilan ajralib turadi. Bunday holatni shoir Erkin Vohidov she`riyatida qo`llangan iboralarga doir olib borilgan kuzatishlar ham buni tasdiqlaydi. Masalan: adabiy tilda “ko`p gapirmoq, vaysaqilik qilmoq” ma`nolarini ixcham tarzda “gap sotishga usta bo`lmoq” iborasi bilan ifodalanadi. Xuddi shuningdek, “tosh otishga usta bo`lmoq” iborasi ixcham tarzda “yomonlik, dushmanlik xatti-harakatlari qilmoq” ma`nosini anglatadi.

Obrazli ifodalash funksiyasi. Badiiy nutqda, ayniqsa, she`riyatda qo`shma iboralar konkret, ko`rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs predmet, voqea-hodisaning obrazli ifodasi bo`lib keladi. Masalan: “tishini tishiga qo`ymoq iborasi”, “Istanbul fojiasi” she`riy drammasidan olingan quyidagi parchada “toqat bilan chidamoq” ma`nolarini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi: tasavvur qil qanday holga tushar xaloyiq. Tishni tishga qo`ydim. Yig`in tamom bo`ldi-yu, biz shiyponga borib yetdik. Umuman baho funksiyali iboralar badiiy matnlarda, jumladan, Erkin Vohidov she`riyatida faol xarakterlovchi vositalardan biri sanaladi. Ular yordamida turli voqea-hodisalarga, predmetlarga bo`lgan lirik qahramon munosabati ifodalanadi, voqeband she`rlarda, dostonlarda esa bir personaj ikkinchisini ana shunday baholash funksiyasi kuchli bo`lgan iboralar yordamida xarakterlaydi:

Bizlar ayollarning *to`lqinida oqib,*

U kunlar haqida to`qiyimiz doston,

Ammo o`lganlarga she`r, dostonidan ne naf, ne foyda

Yig`lashdan *qalb dardin aytib.*

O`zbek tilidagi ko`pgina iboralar ekspressiv emotsional bo`yoqdorlik ajralmas xususiyat sanaladi. Masalan: tilimizda “arpasini xom o`rmoq” iborasi nima yomonlik qildi ma`nosini ifodalaydi, bu ibora kuchli ohang bilan talaffuz qilinishiyoq unda emotsionallikning kuchliligidan dalolat beradi.

Umuman ibora tarkibidagi fonetik, leksik va ayrim grammatik o`zgarishlar undagi ekspressivlik darajasining kuchayishiga olib keladi.

a) ibora tarkibidagi fonetik o`zgarish tufayli ekspressivlik darajasining kuchayishi: sochi tikka bo`ldi – sochi tip-tikka bo`ldi; ko`ngli qora – ko`ngli qop-qora; ko`ngli toza – ko`ngli top-toza.

b) grammatik o`zgarish tufayli: nafasi ichiga tushib ketdi – nafaslari ichiga tushib ketdi, ko`zi qiy-madi – ko`zlari qiy-madi.

Leksik o`zgarish tufayli: narvonga minmoq – ilm narvoniga minmoq; etagini tutmoq – ilhom etagini tutmoq; jilovini tutmoq – ish jilovini tutmoq

Frazeologizmlar tarkibidagi so`zlar boshqa oddiy birikmadagi so`zlarga shaklan o`xshab qolishi mumkin: Mirzakarimboyning qo`li uzun, bu ishlarni uddalaydi. Basketbolchining qo`li uzun edi.

Bunday holatlarda frazeologik ma`no kontekstga qarab aniqlanadi. O`zbek frazeologizmlarning grammatik tabiati haqida so`z borganda, ularning ichki sintaktik qurilishi, paradigmatic shakllari, iboralarning sintaktik qurshovi va ularda variantlanish hodisalarini tahlil qilish kerak bo`ladi. Frazeologik iboralarga grammatik nuqtayi nazardan qaraganda, bunday iboralarning bir xili so`zga teng kelib bir ma`noni anglatadi. Boshqa xillari so`z birikmasiga teng bo`ladi, ba`zilari gapga teng kelib, nisbiy tugal fikrni bildiradi. Mana shu xususiyatlarga qarab, frazeologik iboralarni grammatik tomondan dastlab uchga bo`lish mumkin:

1. So`zga teng kelgan frazeologik iboralar; qo`li ochiq (saxiy), qo`li qattiq (xasis), qattiqqo`l (talabchan), ko`zi yo`lingda (intizor), ko`zi tushdi (ko`rdi), ko`z qorasi (farzandi) kabilar.

2. So`z birikmasiga teng kelgan frazeologik iboralar; ko`nglidagini ochib tashladi (sirini aytdi), o`zlarini aka eskilarini taka deb yurdi (yalinib yolvorib yurdi), ko`zini shira bosgan (muvaqqiyatlaridan esankiradi).

3. Gapga teng kelgan frazeologik iboralar; kengashli to`y tarqamas (har bir ish maslahat bilan bo`lsa yaxshi), qolgan ishga qor yog`ar (har bir ish o`z vaqtida bo`lishi durust), oyni etak bilan yopib bo`lmas (ayb-nuqsonlarni yashirib bo`lmaydi).

So`zga teng kelgan frazeologik iboralarga morfologik jihatdan qaraganda unday iboralardan kelib chiqadigan ko`chma ma`no fe`l, sifat, ot va ravish so`z turkumlariga teng kelishi mumkin. Shunga ko`ra so`zga teng frazeologik iboralarni morfologik tomondan 4 ga bo`lish mumkin.

1. Fe`l frazeologik iboralar; ko`zi yetdi (biladi, tushunadi), ichi kuydi (qayg`urdi), ko`ngil qo`ydi (sevdi).

2. Sifat frazeologik iboralar; terisi qalin (beg`am, beparvo), oq ko`ngil (vijdonli, dunyoni suv bossa to`pig`iga chiqmaydi (beparvo, beg`am).

3. Ot frazeologik iboralar; ko`z qorasi (farzand), umr bahori (yoshlik), aql chirog`i (ilm), ko`z bo`yamachilik (aldash).

4. Ravish frazeologik iboralar; bir yoqadan bosh chiqarib (do`stona, birgalikda), yeng shimarib (as-toydil), bosh ko`tarmay (tinmay).

Frazeologik iboralar gapda har qanday bo`lak bo`lib keladi.

- a) ega vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- b) kesim vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- d) aniqlovchi vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- e) to`ldiruvchi vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- f) hol vazifasida kelgan frazeologik ibora.

Frazeologik iboralar tuzilishi tomondan so`z birikmasi, sodda va qo`shma gap shakllarida keladi:

- 1. So`z birikmasi shaklidagi frazeologik ibora.
- 2. Sodda gap shaklidagi frazeologik ibora.
- 3. Qo`shma gap shaklidagi frazeologik ibora.

Ingliz tilida grammatik jihatdan tasniflangan iboralar:

Get the wrong end of the stick (misunderstand)-verb+object

Pull a fast one (trick, deceive smb)-verb+object

Poke your nose into (interfere)-verb+object

Be over the moon (extremely happy)-verb+prepositional phrase

Feel down in the dumps (depressed)-verb+prepositional phrase

Be in the red (have a negative bank balance)-verb+ prepositional phrase

Frazeologik birikmalarning ifoda plani sifatida kamida ikkita mustaqil so`z qatnashadi. O`zaro sintaktik bog`langan bu so`zlar mohiyatiga ko`ra birikmaga yoki gapga teng bo`ladi.

Frazeologizm tarkibida qatnashgan so`zlar orasidagi sintaktik bog`lanish o`z kuchini saqlaydi, faqat ichki bo`ladi. Iboralarning paradigmatic shakllari (turlanishlari, tuslanishlari kabilar) dastavval ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi. Iboralarning asosiy qismini fe`l frazeologik birliklar tashkil etadi. O`zbek tilidagi iboralarning leksik va grammatik variantlari mavjud.

Leksik variantlar quyidagi turlarga bo`linadi.

- a) leksik almashtirish: og`ziga talqon solmoq – og`zi so`k solmoq.
- b) leksik tanlash: daryodan bir tomchi –daryodan tomchi.
- d) leksik qo`shish: esini tanimoq – es-hushini tanimoq.

Bu variantlar orasida leksik almashtirish esa murakkab hisoblanadi. Leksik so`z qo`shish esa eng kam uchraydi. Grammatik variantlanish ham xuddi leksik variantlanish bo`lganidek ibora tarkibidagi biror grammatik qismni almashtirish, tanlash yoki unga qo`shish voqe bo`ladi. Grammatik variantlanishda o`ziga xos hodisa so`z komponentlarining joylashish tartibi asosida yuzaga keladigan variatlantlanish ham bor.

1. Almashtirish asosida paydo bo`ladigan variantlanish: o`tirgani joy topolmaslik – o`tirishga joy topolmaslik.

2. Qo`shish asosida paydo bo`ladigan variantlanish: holdan toymoq – holdan to`ydirmoq.

3. Tashlash asosida: ko`zi ilindi – ko`z ilindi.

4. Tartib o`zgartirish asosida: bog`dan kelsa – tog`dan kelmoq.

Frazeologik qo`shilma va uning turlari. Frazeologik qo`shilma ko`pincha ikki so`zdan ba`zan o`ndan ortiq so`zdan ham tarkib topadi. Frazeologik qo`shilma tarkibidagi bir yoki ikki so`z ko`chma ma`noda qo`llanib, boshqasi o`z leksik ma`nosini saqlagan bo`ladi. Ko`chma ma`noni ifoda etgan element yolg`iz o`zi kelganda ko`chma ma`nolik xususiyatini yo`qotib, o`z asl ma`nosini bildiradi. Shuning uchun ham frazeologik qo`shilma tarkibidagi bir elementning ko`chma ma`no ifoda etishi uchun ikkinchi elementi o`z ma`nosida kelgan so`z bo`lishi shart. Bundan ma`lum bo`ladiki, frazeologik qo`shilmadagi bir elementdan anglashiladigan ko`chma ma`no butun bog`lanmadagi so`zlarda bog`langan ma`nodan yuzaga keladi. Shunday qilib, tarkibidagi so`zlardan biri yoki ikkitasidan ko`chma ma`nosiga asoslangan va bog`lanmadagi barcha so`zlardagi xos mustaqil ma`no markazlarini saqlab qolgan iboralar frazeologik qo`shilma deb aytiladi. Frazeologik qo`shilma tarkibidagi erkin element bu iboraning erkin so`zlar bog`lanmasi va sintaktik bog`lanmalarga o`xshashlik tomonini ko`rsatadi, ammo frazeologik qo`shilmalarni sintaktik bog`lanmadan farqlay bilish kerak [14,109].

Bu farqni quyidagi misollarda ko`rish mumkin: achchiq choydan bo`lsin. Bunday achchiq gaplardan endi biz ham benasib qolmadik. Birinchi misoldagi achchiq choy iborasi sintaktik bog`lanma bo`lib, har bir so`z leksik ma`nosida qo`llanmoqda, ikkinchi misoldagi achchiq gap iborasi frazeologik qo`shilma hisoblanadi, chunki bunda gap so`zi o`z ma`nosida, achchiq so`zi esa ko`chma ma`noda (koyituvchi, ranjituvchi ma`nolarida) ishlatilgan.

Frazeologik qo`shilmalarni komponentlarining o`zaro aloqaga kirishi, ularning qaysi so`z turkumlari orqali ifodalanishi jihatdan uch turga ajratish mumkin:

- a) qaratqichli frazeologik qo`shilma;
- b) sifatlovchi frazeologik qo`shilma;
- d) predikativli frazeologik qo`shilma.

Qaratqichli frazeologik qo`shilmalarda birinchi o`z leksik ma`nosida kelgan komponent qaratqich kelishigida (belgili yoki belgisiz shaklda) ikkinchi so`z ko`chma ma`noda kelgan komponent qaralmish holida bo`ladi.

Sifatlovchi frazeologik qo`shilmalarda birinchi so`z ma`noda kelgan komponent sifatlovchi, ikkinchi so`z o`z ma`nosida kelgan analitik tipdagi qo`shma fe`lning yetakchi qismi, ikkinchi komponent ko`chma ma`noda kelgan analitik tipdagi qo`shma fe`lning ko`makchi qismi aloqaga kirgan bo`ladi.

Frazeologizmlarni milliy tadqiq qilishda tilshunoslikda keng tarqalgan distributiv metoddan foydalanish mumkin. Frazeologizmlarning nutqda ishlatilish xususiyatlarining distributiv metod yordamida o`rganish orqali ularning struktural-semantik belgilari chuqurroq aniqlanadi. Bundan tashqari, frazeologizmlarni o`rganishda ularning semantik-struktural belgilarini tilning mazmun rejasi bilan uning ifoda rejasining munosabati borasida qaramoq zarur. Frazeologizmlarning tarkibini tekshirishda uning komponentlari o`rtasidagi birikish turlarini birikuvchi so`zlarning tabiatini valentlik metodi asosida qaramoq zarur. Frazeologizmlarning strukturasi va ma`nolarini bir-biriga qarama-qarshi qo`yish (opozitsiya) aniqliklarga olib keladi.

Frazeologizmlarning grammatik tomonlarini ham hisobga olish zarur. Chunki frazeologizmlarning komponentlari o`rtasida sintaktik aloqalar, ularga qo`shiluvchi affikslar muhim rol o`ynaydi. Frazeologiyaning xususiyati shundaki, uning ma`nosini so`zma-so`z, aynan tushunish mumkin emas, balki

uning “tagida yotgan” ma’nosini anglash zarur. Masalan: “Bu odamning ko’ngliga qo’limni solib ko’rsam niyati buzuq ekan” jumlasidagi “ko’ngliga qo’limni solib ko’rsam” so’zlari aynan tushunilsa, hech qanday ma’no chiqmaydi, bu yerda “uning nima niyatda ekanini surishtirib ko’rsam” degan ma’no mujassam.

Frazeologik birliklarning bir-birining o’rnida ishlatila olish xususiyati substansiya metodi yordamida, ularning turg’un va almashtiruvchi komponentlari o’rtasidagi bog’lanishlar transformatsiya metodi yordamida chuqurroq ochiladi. Frazeologik birliklarning struktural-sintaktik metodda har bir so’z ham mustaqil ma’noga ega bo’lavermaydi.

Adabiyotlar

1. Yo’ldoshev B. Hozirgi o’zbek tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. / Filologiya fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati. – T., 1993. 47-bet.
2. Yo’ldoshev B. O’zbek frazeologiyasi va frazeografiyaning shakllanishi hamda taraqqiyoti. – S., 2007.
3. Yo’ldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. – T.: O’TA. 1992. № 3-4. 37-42 b.
4. Yo’ldoshev B., Xalilov Q. Shoir Erkin Vohidovning frazeologizm qo’llash mahorati haqida. // (Monografiya) – Samarqand, 2007. – B. 22
5. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка – М., 1986. – С. 55
6. Кунин А.В.. Английская фразеология – М., 1970. – 312 с.
7. Mamatov A.E. O’zbek tili frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. DDA. – T., 1999.
8. Mamatov A.E. O’zbek tili frazeologizmlarning shakllanishi – T., 1997.
9. Mamatov A.E. O’zbek tilida frazeologizmlarning shakllanish masalalari – T.: O’TA, 2001. № 3
10. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o’zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. T., 1991.
11. Mamatov A.E., Almamatova Sh. Frazeologik transpozitsiya va uni o’rganish haqida uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari. // SamDU to’plami, 2007.
12. Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasini haqida. // O’zMU to’plami, 2007.
13. Ne’matov H., Rasulov R. O’zbek tili sistematik leksikologiyasi. – T., 1995.
14. Pinxasov U. Hozirgi o’zbek adabiy tili leksikologiyasi. – T.: “Fan”, 1968.
15. Rafiyev A. Iboralar nutqimiz ko’rki – T.: “Fan”, 1985.